



## MILLATLARARO BAG'RIKENGLIK MADANIYATI INSONPARVARLIK VA TINCHLIKNING ASOSIY TAMOYILI SIFATIDA

Xoliqov Yunus Ortiqovich <sup>1</sup>

<sup>1</sup> Samarqand davlat chet tillar instituti

Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari kafedrasida dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

xoliqov-yu@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5812886>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10-Dekabr 2021  
Ma'qullandi: 15-Dekabr 2021  
Chop etildi: 20-Dekabr 2021

### KALIT SO'ZLAR

Ma'naviyat, millatlararo, geosiyosat, diplomatiya, xavfsizlik, xulq-atvor, umuminsoniy, urf-odatlar, axloq, miliy, qadriyat, dunyoqarash, bag'rikenglik, murosa, o'zaro hurmat, ma'rifat, mentalitet, milliy qadriyat, tinchlik, barqarorlik, axloqiy munosabat, millatlararo ahillik, xalqaro do'stlik, turli millat, millat, yelat, shart-sharoit, ong, kuch-qudrat, kamtarlik, sharmu hayo, or-nomus.

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada Jahonda sodir bo'layotgan globallashuv natijasida millatlarning bir-birlari bilan madaniy aloqalarni kuchaytirishi, millatlararo bag'rikenglik munosabatlar tizimida mavjud omillarni mustahkamlashiga keng imkoniyatlar yaratilganligi yoritilgan. Millatlararo bag'rikenglik madaniyatiga nisbatan O'zbekistonda barcha milatlarning birlashib, millatlararo bag'rikenglik negizida faoliyat olib borayotganligi, bu tushnchaning mohiyati, jamiyatdagi shakllanish tendentsiyalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shu boisdan jahonda ayni paytda millatlar o'rtasida turlicha nizolar kuchayayotgan bir davrda yurtimizda bu islohotlar ko'pni ko'rgan oqil, donishmand xalqimizning o'g'itlari asosida olib borilayotganligi aks etgan.*

Dunyoda turli millat vakillarining bir mamlakatda tinch-totuv yashashlari, umuminsoniy millatlararo bag'rikenglik madaniyatini rivojlantirishga intilishlari yangi asrga xos xususiyatdir. Biroq, madaniyatning notekis rivojlanish qonuniyatiga ko'ra ayrim jamiyatlarda millatlararo bag'rikenglik madaniyat omili

yetarlicha namoyon bo'lmayotganligi tufayli ularda mavjud siyosiy hokimiyatga qarshi turli destruktiv harakatlar vujudga kelib, bu boshqa xalqlar va davlatlarning barqarorligi hamda taraqqiyotiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Mazkur holat yoshlar madaniyatining real va potentsial imkoniyatlaridan samarali foydalanishga,



ularning millatlararo bag'rikenglik madaniyatini rivojlantirish bilan bog'liq ehtiyojlarni vujudga keltirmoqda.

Mamlakatimiz hududida qadimgi davrlardanoq turli millat vakillari hamjihatlikda yashab kelishgan. Ular o'rtasidagi hamjihatlikning zamirida shubhasiz, o'zbek xalqining bag'rikenglik, insonparvarlik xususiyatlari turadi. Masalaning ikkinchi tomoni esa mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab hozirgi davrga qadar millatlararo totuvlikni ta'minlash borasidagi davlat siyosatining samarali olib borilgani bilan xarakterlanadi.

Millat va millatlararo totuvlik tushunchalarini tadqiq etgan nazariyotchi olimlar bu tushunchalarga o'z ta'riflarini berishgan. Jumladan, mualliflar jamoasi tomonidan yaratilgan "Xalqaro munosabatlar (geosiyosat, diplomatiya, xavfsizlik)" nomli o'quv qo'llanmada "millat - o'zligini anglagan, o'z ruhiyatiga ega odamlarning tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy jihatdan shakllangan birligi"<sup>1</sup>. Mamlakatimizda yoshlarning axloqiy bag'rikenglik madaniyatini insonparvarlik, ma'rifatparvarlik, halollik tamoyillari bilan kamol toptirishga va ularni milliy mentalitetimiz negizida tarbiyalash jarayoniga alohida e'tibor qaratilmoqda.

**Shu o'rinda millatlararo bag'rikenglik madaniyati tushunchasi tadqiqiga e'tibor qaratsak. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'atida millatlararo totuvlik - "millatlararo ahillik, xalqaro do'stlik, milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalaridan biri, muayyan hudud, davlatda turli millat vakillarining bahamjihat yashashi, hamkorlikda faoliyat yuritishini**

<sup>1</sup> Xalqaro munosabatlar (geosiyosat, diplomatiya, xavfsizlik). –Toshkent: Akademiya, 2006. – B. 64

ifodalovchi tushuncha<sup>2</sup>", deya ta'riflanadi.

**Millatlararo bag'rikenglik madaniyati**

**umuminsoniy madaniyatning bir qismi bo'lib, o'ziga xos xususiyatlarga ega. Jamiyatda millatlararo bag'rikenglik madaniyati masalalari bilan shug'ullanuvchi faylasuflar fuqarolik jamiyati qurishdagi o'rnini tarixiy jihatdan yoritib berishga harakat qilganlar. Xususan, Arastu, Aflotun, Konfutsiyalar davlat va jamiyatning mustahkamligini ta'minlashda bag'rikenglik madaniyati zarurligini ta'kidlaganlar. Bu masala bo'yicha shug'ullangan taniqli chet elik olimlar qatorida D.Lokk, R.Myullerson, K.Popper, B.Spinoza, D.Turimanlar tolerantlikni talqin qilishda liberal yondashuvni ochgan. "Bag'rikenglik to'g'risida"gi risolasida amerikalik tadqiqotchi D.Truman<sup>3</sup> yozganidek, jamiyatni tanazzuldan, saqlab qolish va barqarorlikni saqlab turish bu faqat ochiq jamiyatning mezoni bo'lib bag'rikenglik bilan bog'liqligini yoritib bergan. Ochiq jamiyatning muhim belgilaridan biri bu millatlararo tolerantlik, o'zgacha fikrga nisbatan millatlararo bag'rikenglik va shu kabilarga olib keladigan fikrlar, mafkuralar plyuralizmining muqarrarligi va zarurligini tan olishdir. Shu bilan birga, ijtimoiy va siyosiy mojarolar yo'qolib ketmaydi, lekin asosiy e'tibor barcha ishtirok etayotgan tomonlarning manfaatlarini va pozitsiyalarini hisobga olgan holda uyg'unlashtirish orqali ularni demokratik tarzda hal qilish tartibiga qaratiladi. Buning**

<sup>2</sup> Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати. – Тошкент: F.Фулом, 2010. – Б. 379.

<sup>3</sup> Truman D.B. The Governmental Process. Political Interests and Public Opinion. N.Y., 1971. P. 14.



asosida esa bag'rikenlik madaniyati ustuvorlik qiladi.

Yana bir muhim masala, bag'rikenglik bilan bog'liq bag'rikenglik madaniyati, bag'rikenglik xulq-atvori va plyuralizmni qiyosiy tahlil qilish maqsadga muvofiq. Bag'rikenglik madaniyati murosaga asoslansa plyuralizm hurfiylikka asoslanadi. Ularni bog'liqligi xilma-xillikni e'tirof etish va shu tamoyilga asoslanish hisoblanadi.

Millatlararo bag'rikenglik madaniyati:

birinchidan, insoniy, oilaviy, milliy va umuminsoniy millatlararo bag'rikenglik tarzida namoyon bo'lsa;

ikkinchidan, o'z-o'zini hurmatlash va qadrlash, murosa, o'zaro hurmat, qadrlash, sabr-toqat, chidamlilik, qanoat, shukr qilish kabi shakllarida namoyon bo'ladi;

uchinchidan, diniy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, xalqaro va davlatlararo yo'nalishlarda aks etadi. Yuqoridagilarning barchasi sub'ektning millatlararo bag'rikenglik madaniyati bilan bog'liq hisoblanadi.

Tortinchidan: ijtimoiy muhit, axloqiy munosabat, millatlararo ahillik, xalqaro do'stlik, turli millat, elat va etnik guruh vakillarining hamkorlikda faoliyat yuritishlari namoyon bolsa.

Shu bilan bir qatorda, bag'rikenglik bor joyda qilingan gunohlar kechiriladi, ichki va tashqi ziddiyatlarning oldi olinadi, xayrli va savobli ishlarga qo'l urish uchun keng imkoniyatlar ochiladi, oilada totuvlik, insonning ma'naviy vujudida esa tan-sihatlik va xotirjamlik hukm sura boshlaydi, xalqlar va mamlakatlar o'rtasida o'zaro hamkorlik, qolaversa, do'stlik va birodarlik rishtalari tobora mustahkamlanib boraveradi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev takidlaganidek Biz muqaddas dinimizni noto'g'ri talqin etayotgan va uni niqob qilib, bizni orqaga, o'rta asrlar hayotiga qaytarishga urinayotgan buzg'unchi kuchlarga qarshi keskin kurashib keldik va bundan keyin ham qat'iy kurash olib boramiz"<sup>4</sup>. Bunday sa'y-harakatlarimiz bevosita jamiyatda yurtimizning tinchligini, xalqimizning farovonligini ta'minlashga, har bir fuqaroning ertangi kelajakka umidini mustahkamlashga xizmat qiladi.

1. Rivoyatlarda kelishicha, Payg'ambarimiz boshqa yurtlardan kelgan mehmonlarga o'zining masjidlaridan joy berib, o'zlari ularning xizmatida bo'lgan ekanlar;

2. Madinaga Payg'ambarimiz kelganlaridan keyin yahudiylikka e'tiqod qiladiganlar bilan o'zaro kelishgan holda, jamiyat ravnaqi yo'lida birlashib, tinch-totuvlikka erishganlar va shu hududda birgalikda hamfikir bo'lib yashaganlar;

3. Payg'ambarimiz o'z davrida o'zga dinlar vakillarining qilgan tuhfaolarini olib, ularga hadiya berar edilar;

4. Payg'ambarimiz o'zga dinlar vakillarining tuhfa qilingan kiyimlarni kiyib yurganlar, taomlarni esa iste'mol qilganlar;

5. O'z davrida ikkinchi xalifa barcha din vakillarining hurmatini joyiga qo'yib, ularga nafaqa tayin qilganlar.

Hadislardan namunalar: «O'zingga yoqqan narsani ham boshqalarga ham ravo ko'r», «Ziyoratingizga kelgan odam hurmatini joyiga qo'yinglar», «Qaysi birlaringiz o'zingizdan boyroq yoki axloqliroq odamni ko'rib qolsangiz, darhol o'zingizdan kambag'alroq va axloqsizroq odamlar ham borligini eslang», «Odamlarga

<sup>4</sup> Мирзиёев М.Ш. Миллий тараққиёт йўлимизми қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: Ўзбекистон, 1-жилд, 2018. – Б. 47.



keng qalbli bo'linglar, shunda odamlar ham sizga shunday bo'lurlar», «Odamlarga taom yediringlar va shirin so'z bo'linglar, ochlarga ovqat bering, bemorlarni borib ko'ring va hojatmandning hojatini chiqaring», «Kasbning eng yaxshisi kishining o'z qo'li bilan bajaradigan ishi va halol savdodir», «Bir-birlaringiz bilan salomlashib yuringlar, shunda mehru-muhabbat uyg'onur», «Imonning afzali sabr va keng qalbli bo'lishdir».

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev dinlararo bag'rikenglik g'oyasi yuksak ma'naviy qadriyat sifatida azaldan xalqimizning ongu shuurida shakllanib kelgani, u mamlakatimizda kuchli demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etilishining asosiy tamoyillaridan biri ekanligi va jamiyatimizda o'ta muhim ahamiyat kasb etishi to'g'risida fikr bildirar ekanlar, "Bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O'zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustivor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi. Bularning barchasi hayotda o'z isbotini topdi",<sup>5</sup> deb ta'kidlaydilar.

Butun insoniyat tarixida millatlararo bag'rikenglik va madaniyatlararo munosabatlar sohasidagi tolerantlik bilan bog'liq masalalar eng jiddiy bo'lib qoldi. Darhaqiqat, insoniy munosabatlarning ushbu sohasida juda ko'p ziddiyatli vaziyatlar yuzaga kelgan va hozirgacha ham mavjud. Ijtimoiy-madaniy jihatdan millat va millatchilik hodisalarini o'rganish sohasida ishlayotgan ko'plab olimlar ularni

so'nggi bir necha asrlar davomida jamiyatlar va davlatlarning ijtimoiy-siyosiy sohasini demokratlashtirish jarayonlari bilan bog'laydilar.

Millatlararo bag'rikenglik madaniyati o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, shakllanmaydi. Bu jarayonda millatlararo bag'rikenglik munosabatlarning teng xuquqlilik, o'zaro xurmat, do'stlik va hamkorlikka asoslangan o'zaro munosabatlarning o'rnatilishi natijasida qo'yilgan maqsad sari intilish mumkin. Masalaning ikkinchi tomoni esa, hukmatning ushbu masalaga davlat siyosati darajasidagi e'tibori orqali amalga oshadi.

O'zbekiston hukumati oqilona, diniy bag'rikenglik siyosatini olib bormoqda. Bunday ma'naviy islohotlarning negizida milliy mafkuraning muhim g'oyasi bo'lgan diniy bag'rikenglik negizida barcha millat va elatlarni hurmat qilish, Vatanga sadoqat tuyg'usini kuchaytirish, shu yurtda yashayotgan turli millat vakillarining o'zaro hamkorlikda hamjihat bo'lib yashashlari aks etadi. Bugun O'zbekistondagi dinga munosabatning bag'rikenglikka asoslanganligini barcha millat vakillarining maqsad va maslaklarida yakdillik, shu yurt kelajagi yo'lida birlashib ozod va obod Vatanni barpo etishga intilayotganligida, azaldan mavjud an'ana va urf-odatlarini saqlab kelayotganligida ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Bosh Qomusimizning 18-moddasiga asosan «O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar qonun oldida tengdirlar»<sup>6</sup>. O'zbekistonda bu qoida jamiyatning barcha

<sup>5</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 295.

<sup>6</sup> Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 9.



jabhalari va bag'rikenglik uchun siyosiy-huquqiy zamin yaratdi.

Millatlar o'rtasida millatlararo bag'rikenglik munosabati insonparvarlik, tinchlik, ijtimoiy taraqqiyotning kelajagini ta'minlaydi. Shunday ekan, millatlararo bag'rikenglik masalasi butun dunyoda bo'lgani kabi O'zbekiston uchun ham ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Tarixan yuzlab xalqlar, millatlar va etnik guruhlar uchun umumiy uyga aylangan mamlakatimiz uchun millatlararo bag'rikenglikning mustahkam o'rnatilgani davlatning kuch-qudratini belgilovchi vositalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy jihatdan barqaror, umuminsoniy qadriyatlar ustuvor bo'lgan, ma'naviy meros va diniy qadriyatlarni tiklab, inson huquqlarini ustuvor soha darajasiga ko'tara olgan mamlakatdir. O'zbekiston Markaziy Osiyoda barqarorlikni ta'minlash va mintaqa davlatlarining siyosiy, ma'naviy va iqtisodiy sohalardagi o'zaro integratsiyalashuvi jarayonida muhim o'rinni egallash bilan birgalikda millatlararo totuvlik va bag'rikenglik sohasida ham namuna bo'lmoqda.

G'oyaviy bo'shliqni milliy xususiyatlar bilan to'ldirish muhim. Zero bunday vazifa mamlakatning kelajagini belgilab beruvchi vositadir. Ta'kidlash joizki, g'oyaviy bo'shliqni to'ldirish jarayonida millatlararo munosabatlar tizimi ham o'ziga xos o'ringa ega. Yoshlar o'rtasida millatlararo totuvlikning muhim jihatlarni targ'ib qilish, targ'ibot jarayonida totuvlikning estetik xususiyatlarini hisobga olish o'z natijasini berishi shubhasiz. "O'zbekistonda turli millat vakillarining milliy tarixi, madaniyati, tilini, urf-odatlarini, o'rganish bo'yicha turli tadbirlar o'tkazilmoqda,

milliy bayramlar nishonlanmoqda, to'garaklar faoliyat ko'rsatmoqda"<sup>7</sup>.

Xulosa qilib aytganda millatlararo bag'rikenglikning eng qiyin tamoyili etnik munosabatlar sohasida amalga oshiriladi. Ushbu tamoyilni amalga oshirishdagi qiyinchilik bag'rikenglikni turli xil tushunish bilan bog'liq bo'lib, bu madaniy an'analarning o'ziga xos xususiyatlari va tarixiy shakllangan ong va inson xatti-harakatlarining o'ziga xos xususiyatlari bilan izohlanadi. Ushbu muammoning ko'plab tadqiqotchilarining fikriga ko'ra, etnik nizolar birinchi navbatda ijtimoiy beqarorlik, aholining turmush darajasi pastligi va etnik guruhlarini ma'muriy-zo'ravonlik usulida birlashtirish bilan bog'liq.

---

<sup>7</sup> G'aybullayev O.M. Milliy g'oya tarixi va nazariyasi. – T.: Fan va texnologiya. 2019. –B. 380.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Халқаро муносабатлар (геосиёсат, дипломатия, хавфсизлик). –Тошкент: Akademiya, 2006. – Б. 64
2. Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати. – Тошкент: Ғ.Ғулом, 2010. – Б. 379.
3. Truman D.B. The Governmental Process.Political Interests and Public Opinion.N.Y., 1971.P. 14.
4. Мирзиёев М.Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: Ўзбекистон, 1-жилд, 2018. – Б. 47.
5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 295.
6. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 9.
7. G'aybullayev O.M. Milliy g'oya tarixi va nazariyasi. –Т.: Fan va texnologiya. 2019. –В. 380.